



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING SHAXMAT O'RGATISH JARAYONIDA MANTIQUIY FIKRLASH VA SHAXSIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

¹Xoliqov Umidjon Kuchqarovich

tel:999178075. shax75.75@mail.ru

Guliston davlat Instituti «Pedagogika» kafedrası o'qituvchi.

²Abdualimova Madina Akbar qizi

Ijtimoiy-gumanitar fakulteti o'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 36-22
guruh talabasi. Telefon raqam:Q998 91 022 41 40

ARTICLE INFO

Received: 01st April 2023

Accepted: 14th April 2023

Online: 25th April 2023

KEY WORDS

Shaxmat, shaxsiy sifatlar,
asabiylik, o'z-o'zini baholash,
stressbardoshlilik, vijdonlilik,
to'sqinlik, mardlik,
ijtimoiylashuv.

ABSTRACT

Ushbu maqolamizda yosh avlodni ta'lim tarbiya berishda shaxsiy sifatlarini shakllantirishda shaxmat o'yini orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxsiy sifat va mantiqiy fikrlashlarini shakllantirishda amaliyoti omili muhim ekanligi sababli jahonda uni chuqur tadbiq etishga dolzarb ilmiy-amaliy masala sifati to'g'rsida ma'lumot berilgan.

Dolzarbli. Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida umumta'lim maktablari o'quv jarayonida o'quvchilarni mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarni shakllantirish omillari keng tatbiq etish imkoniyatlarini oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasp Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4947 son, 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son[1], O'zbekiston Respublikasi 2021 yil 14 yanvardagi "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4954-son qarori[2] hamda umumiy o'rta ta'lim tizimi faoliyatiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish ushbu jarayonga muayyan darajada xizmat qiladi.

Shaxmat o'yini bolaning his-tuyg'ulari, axloqiy sifatlari va xulq-atvorini tashkil etadi. Maktabda shaxmat faoliyatini tashkil etish haqida gapirganda, biz aynan o'yinni o'zini emas, balki har bir yosh guruh bolalariga mavjud shakllardagi shaxmat asoslarini o'rgatishning samarali qurilgan jarayoni nazarda tutamiz. Shaxmat o'ynashni o'rganish maktab o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirishda qadimiy o'yinga xos bo'lgan salohiyatdan to'liq foydalanish imkonini beradi.

Mantiqiy fikrlashni shakllantirishning eng samarali vositasi maktab o'quvchilari shaxmat faoliyatidir. Mantiqiy fikrlash haqida gapirganda, bu intuitiv mantiq qonunlari har bir



kishi uchun ma'lum va ko'p odamlar aql o'z-o'zidan shakllangan ko'nikmalarini foydalanib ta'kidlash zarur. Mantiqning o'zi faqat fikrlash amaliyotining umumlashmasi va bundan tashqari to'g'ri fikrlash sifatida paydo bo'ldi. "Fikrlash ehtiyojlaridan o'sib chiqib, bir marta shakllangan mantiq fikrlashning rivojlanishi va faoliyatining muhim mexanizmiga aylandi. Bu fikrlashning elementi ham, uning rivojlanish vositasi ham, ba'zan tormozlovchi, lekin har doim mantiq muammolarni hal qilishda faol ishtirokchi bo'lib chiqadi. Mantiq fikrlash taraqqiyotining faqat elementi va vositasi emas, balki uning belgilovchi omilidir. [15]

Shaxmatni o'rgatish jarayoni shaxmat darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida ilmiy jihatdan asoslab berilmagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Pedagogika fanida shaxs taraqqiyotida va ularni barkamol qilib tarbiyalash jarayonida ko'plab xorij va Vatanimiz pedagog olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida o'quvchining mantiqiy va shaxsiy sifatlari shakllanishida boshlang'ich sinf o'quvchining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Respublikamizda boshlang'ich ta'limning turli jihatlari B.S.Abdullaeva, B.R.Adizov, G.R.Akramova, G.T.Boymurodova, N.G'.Dilova, G.N.Najmiddinova, X.P.Nazarova, R.Nurjanova, R.G.Safarova, N.T.Tosheva, Z.A.Xolmatova, G.Q.Hasanovalar tomonidan faol tadqiq qilingan.

Shaxsiy sifatlarni muammosi jahonning bir qator olimlari tomonidan keng doirada o'rganilib, ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, ijtimoiy yo'nalishda: Yu.Emilyanov, L.Petrovskiy, Yu.Jukov, V.Loos, G.Kovalev, N.Grishina, A.Kidron, Yu.Maysuradze, L.Berestova, A.Evseev va boshqalar tomonidan, ta'lim tarbiya tizimida: Yu.Vardanyan, N.Kuzmina, E.Popova, A.Markova, M.Lukyanova va boshqalar tomonidan, kasb faoliyat tizimida: A.Asmolov, E.Klimov, L.Petrovskaya, L.Mitina, D.Leontev va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan hamda ilmiy-amaliy ma'lumotlar to'plangan [3].

Bu yo'nalishda o'zbekistonlik pedagog olimlar: R.Gaynutdinov, Z.Gapparov, D.Arziqulov, M.Mamatov, X.Tulenova, Z.G'ozieva va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan, lekin pedagogika fanida o'quvchining shaxsiy sifatlari shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy jihatdan etarlicha ilmiy tadqiq etilmagan. Shaxs xususiyatlarini shakllanishi to'g'risida olimlarimizdan: V.Karimova, M.Davletshin, E.G'oziev, V.Karimova, G'.Shoumarov, B.Qodirov, F.Haydarov, R.Samarov, Sh.Baratov, L.Tursunov, B.Sirliev, G.To'laganova, A.Rasulov va P.Ergashevlar tomonidan shaxs taraqqiyotining kasbiy faoliyati va uning turli bosqichlariga xos muammolarning pedagogik jihatlari bir qadar ochib berilgan. [10] Biroq, shaxmatchining shaxsiy sifatlarni shakllanishiga ta'siri muammosi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida maxsus tarzda o'rganilmagan. Biz ularning izlanishlariga tayangan holda maqolamizda boshlang'ich sinf o'quvchining shaxsiy sifatlari shakllanishiga shaxmat faoliyatining ta'siri xususida to'xtalib o'tamiz.

Tadqiqot metodologiyasi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatga shakllantirishda muammoli o'qitish metodidan foydalanish samaradorlikni ta'minlash imkonini beradi. Muammoli o'qitish metodlari yordamida o'quvchilarni mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatga o'rgatish jarayoni samarali tashkil etiladi. Masalan, shaxmat darslarida muammoli vaziyatni xosil qilish uchun o'quvchilarga jumboqli topshiriqlar taqdim etiladi.



Muammoli topshiriqlar o'quvchilarni mushohada qilishga undaydi, mushohada esa mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifat ko'lamini kengaytiradi. Shaxmat masalalar o'zaro qiyoslash, tasniflash va har biriga xos xususiyatlarni mustaqil tahlil qilishga o'rgatadi. Muammoli topshiriqlar o'quvchilarda qiziquvchanlik, noma'lum narsalarni izlab topishga intilish, evristik faollik ko'rsatish kabi sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. [12]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash faoliyati natijalarini aniqlovchi quyidagi ko'rsatkichlarni belgilab olish mumkin: moddiy borliqning o'ziga xos jihatlari va mantiqiy asoslarini ochishga xizmat qiladigan yangi echimlar; ma'lum echimlarga mutlaqo o'xshamaydigan echimlar; muhim ishlanmaning loyihasi va uning tayyor modellari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatga o'rgatishda pedagoglarga quyidagi texnologiyalardan foydalanishni tavsiya qilamiz: "Pedagogik hamkorlik texnologiyasi", "Aqliy hujum", "Rolli o'yinlar", "Munozara-ringi", "Echimlar daraxti", "Muzyorar", "Ikki qismlik kundalik", "Sinkvey", "Klaster", "Kubiklar", "B-B-B", "Venn diagrammasi", "Eylar chizmalari", "T-chizma", "Pauzali o'qish", "Zigzag", "Keys", "Pinboard" kabilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatga shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonlarida qo'llanilgan texnologiyalar mazkur yo'nalishdagi faoliyat samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin: o'quvchilar bahs-munozara jarayoni yakunida muhim qarorlar qabul qilishga o'rgandilar; kichik guruhlarda ishlash davomida har bir o'quvchining mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifat darajasi yaqqol namoyon bo'ldi.[6]

Tahlil va natijalar

Pedagogik tajriba-sinov natijalarini tahlil etishda shaxmato'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash bo'yicha o'quvchilar bilan olib borilgan so'rovnomalar yuzasidan olingan tajriba sinflari va nazorat sinflaridagi natijalarni solishtirish uchun eng xolis ko'rsatkichlar aks etadigan matematik statistika metodi qo'llanildi. Tadqiqot yuzasidan o'tkazilgan tajribaslov ishlariga, umuman, 1760 nafar o'quvchi jalb etildi, ya'ni tajriba sinflarida qatnashgan o'quvchilar soni 930 nafarni, nazorat sinflarida esa 830 nafarni tashkil etdi. Tajriba o'quvchilar bilan og'zaki va test savollari asosida o'tkazildi.

O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalarini tahlil etishda shaxmato'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash bo'yicha Namangan viloyatining Namangan shahar va To'raqo'rg'on tumanidagi, Surxondaryo viloyatining Termiz shahridagi va Termiz tuman, Sirdaryo viloyatining Guliston shahar, Bayovut tuman va Oq oltin tumanidagi bir qator maktablarning boshlang'ich sinflarida o'qiydigan kichik o'quvchilar bilan so'rovnomalar o'tkazildi. O'tkazilgan so'rovnomalar makoni va sotsiologik so'rovlar yuzasidan olingan natijalar quyidagi jadvalda aks etgan

Iborat sinaluvchilarda V.Melnikov va L.Yampolskiyning "Individual va shaxsiy xususiyatlarni o'rganuvchi" psixodiagnostik metodikasidan foydalandik hamda quyidagi natijalar olinib tahlil qilindi [6].

Empirik natijalar tahlili. Sinaluvchilarda o'tkazilgan psixodiagnostik usuldan olingan natijalar asosida quyidagicha tahlil qilindi.



Psixologik lug'atda asabiylikka quyidagicha ta'rif berilgan, "**Asabiylik**" - bu shaxsning hissiy beqarorligi, xavotirlanishining yuqoriligi, o'ziga bo'lgan hurmatning pastligi, vegetativ buzilishi bilan karakterlanadigan holatdir"[6].

Tadqiqot natijalariga ko'ra nazorat sinf shaxmatchilarning "asabiylik" ko'rsatkichlari yuqori (16,4 ball). Bu esa ularda xavotirlanishning yuqoriligi, o'ziga bo'lgan hurmatning pastligi, qo'zg'aluvchanligi va tashvishli ekanligidan dalolat beradi. Bu holatni ham ma'lum bir ma'noda yosh davrlarining psixologik xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

Tajriba sinf shaxmat bilan shug'ullangan sinaluvchilarda asabiylik ko'rsatkichi nazorat sinf shaxmatchilarga nisbatan pastroq ko'rinishga ega (17,4) bo'lib, ularda nazorat sinf shaxmatchilarga nisbatan asab tizimi kuchliroq bo'ladi. Chunki, muntazam jismoniy mashg'ulotlar va sport musobaqalarida shaxmatchining ruhiy tayyorgarligi takomillashib boradi hamda asab tizimi yaxshi rivojlanadi.

O'z-o'zini boshqarish- shaxmatchilarda 15,7 ni nazorat sinf o'quvchilarda esa 14,1 ni tashkil etdi. Ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, tajriba sinf sport bilan muntazam shug'ullanuvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarda o'z-o'zini baholash xususiyati, nazorat sinf shaxmatchilar ko'rsatkichidan yuqori natija ko'rsatdi. Ushbu xususiyat o'quvchida o'zining jismoniy va ruhiy tayyorgarligini real baholash orqali natijalarini yangilashi mumkin. Shaxmat bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarda o'z-o'zini baholash xususiyati jasurlik, uddaburonlik, o'zini namoyon qilish va mardlik sifatleri takomillashishiga yordam beradi.

Stressbardoshlik - olingan natijalari asosida aytish mumkinki, shaxmat bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarning stressbardoshlik nazorat sinf o'quvchilarga nisbatan yaxshi rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin (16,6). Ularda mashg'ulot va musobaqa jarayonida uchraydigan stresslarni oldini olishga qaratilgan psixologik himoyalash mehanizmi stressbardoshlik xususiyatini takomillashuviga olib keladi. Bu holat shaxmatchi shaxsining boshqa oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishda ham ijobiy rol o'ynaydi.

Nazorat sinf shaxmatchilarda ko'rsatkich tajriba sinflarga nisbatan pastroq ko'rinishda (10,4). Ular ham o'zida stressbardoshlik sifatini rivojlantirsa, oldiga qo'ygan maqsadiga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Vijdonlilik - bizni nazarimizda ijtimoiy normalar va etika talablariga hurmat darajasi sifatida o'zini nazorat qilish, halollik va umuminsoniy qadriyatlarni isbotlashga intilish bilan birlashib ketadi.

Bizning tadqiqotimizda vijdonlilik ko'rsatkichi nazorat sinf shaxmatchilarda ham o'rtadan yuqori darajani ko'rsatmoqda (13,7).

Fikrimizcha, bu omillar barcha o'quvchilarga bir xil ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramay, shaxmat turi bilan muntazam shug'ullanuvchi o'quvchilarda vijdonlilik ko'rsatkichi ancha yuqori ekanligini ta'kidlab o'tishimiz lozim (15,2). Shaxmatchilarda maqsad musobaqalarda g'alabaga intilish motivi qadriyatlar asosida qo'yilgani bois, ularda vijdonlilik xususiyati rivojlanishiga, aksincha moddiy manfaatlarga qaratilgan bo'lsa, sport natijasiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin, lekin vijdonlilik sifatiga salbiy ta'sir etadi.

bardoshli- bu xulq-atvorni ijtimoiylashuvi va o'zini tuta bilish ko'rsatkichi nazorat sinf shaxmatchilarda ancha yuqori bo'lib, bu ularning o'zini o'zi yaxshi nazorat qila olmasligi va qiziqqonligidan dalolat beradi (10,4). Bizningcha, nazorat sinf o'quvchilarda oldiga qo'yilgan



maqsadga, ya'ni sportda yuksak natijalarga tez erishish istagi uni keyinga qoldirishni xohlamaslik bilan bog'liq.

Ushbu sinaluvchilarda o'tkir affektiv kechinmalarga bo'lgan mayl kuchli ifodalangan. Qo'zg'alishga bo'lgan ehtiyoj va hayajonga keltiruvchi holatlarda toqat qilib bo'lmaydigan darajada sustkashlik qiladilar. Ular o'z xohishlarini bevosita muloqot jarayonida qoniqtirishga harakat qiladi, buning natijasi haqida jiddiy o'ylamaydi, qiziqqonlik bilan harakat qiladi. Shuning uchun ular o'zlarining ijtimoiy tajribalaridan kerakli xulosa chiqarmaydi hamda shaxslararo munosabatlarda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi. Bundan tashqari ularning ko'pchiligida asab tizimi tajriba sinf o'quvchilarga nisbatan muvozanatlashmagan tipga mansubligi bilan ajralib turadi.

Shaxmat bilan tajriba sinf shug'ullanuvchi o'quvchilarning to'sqinlilik bo'yicha ko'rsatkichlari 10,2 ni tashkil etib, nazorat sinf o'quvchilar bilan unchalik farq qilmaydi. Bu esa o'z o'rnida ularning ijtimoiy talablarga, o'zini tutishga, muomalada ehtiyot bo'lishga undaydi.

Ijtimoiylashuvlik - bu ko'rsatkich vijdonlilik va to'sqinlilik darajalaridan tashkil topgan. Bir yo'la bu ko'rsatkich bo'yicha darajalar shaxmat bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarda o'rtacha darajada namoyon bo'layotganligini aytib o'tish lozim va ishonchlilik darajasi ularni ko'rsatkichi bilan nazorat sinf shaxmatchilarning ko'rsatkichlari orasidagi farq uncha katta emas. Shu bilan birga aytish mumkinki, o'quvchilarda axloqiy talablar va jamiyat qoidalariga rioya qilish ehtiyojlarini shakllanishiga yordam beradi.

Hadiksirash - bu mashg'ulot va musobaqa jarayonida o'quvchilar ruhiy kechinmalarida iz qoldirishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, shaxmatchilar orasida o'rtacha ko'rsatkichlar ustunlik qiladi. Nazorat sinf shaxmatchilarning ko'rsatkichlari esa ularning yuqori bahoga moyilligidan dalolat beradi (qat'iyatsizlik, tortinchoqlik, ishonchsizlik va boshqalar). Ulardagi g'alabaga intilish motivi va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi o'rtasidagi qaror qabul qilish davrining cho'zilib ketishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Yuqorida bildirilgan fikrlar boshlang'ich sinf o'quvchilarni ijtimoiy taraqqiyotga mos holda tarbiyalash, ularning ongi, tafakkuri va dunyoqarashini zamon talablari darajasida shakllantirish borasida bir qancha olimlar o'z tadqiqot ishlarida ilmiy asoslangan fikrlarini bayon qilishgan.

-shaxmat o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqishda milliy metodologik, tarixiy va mantiqiy ilmlarga tayanish;

-boshlang'ich sinf o'quvchilarda shaxmat o'yinlaridan foydalanish asosida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda nisbatan yangicha yondashishni qaror toptirish;

Shaxmat bilan muntazam shug'ullanayotgan o'quvchilarda mardlik, qat'iyat, o'z-o'zini nazorat qilish, umumiy faollik, vijdonlilik singari shaxsiy sifatlarining takomillashishiga yordam beradi.



Tavsiyalar. Shaxmat turi bilan muntazam shug'ullangan o'quvchilarning shaxsiy sifatlari takomillashuvi va shaxsiy natijalarini yaxshilashga qaratilgan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- shaxmat turi orqali o'quvchining shaxsiy sifatlari takomillashuvining psixologik jihatlarini ilmiy-amaliy o'rganish hamda rivojlantirishga qaratilgan dastur ishlab chiqish.
- o'quvchilarni mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini egallashga ruhan tayyorlash;
- o'quvchilarning o'z fikrlari mantiqiy asosga egaligi va qat'iyligiga bo'lgan ishonchlarini barqarorlashtirish;
- muayyan sinf o'quvchilarida jamoaviy tarzda mantiqiy fikr yuritishga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatlarni tashkil etish kabilar.

References:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni G'G' O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. - 6 (766)-son. -B. 38.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvardagi Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4954-son qarori.
3. Tarasova O.V. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya logicheskoy kulturo' mladshix shkolkov sredstvami shaxmatnoy deyatelnosti, Dis. ... kand. ped. nauk. -Kazan, 2005. 209 s.
4. Melnikov V.M., Yampolskiy L.T. Vvedenie v eksperimentalnuyu psixologiyu lichnosti. - M.: Prosveshenie. 1986. 319 s.
5. Muhiddinov M. Katakarda yashiringan olam. -T.: O'zbekiston, 1976. 66 b.
6. Xalaev M. Shaxmat alifbosi. -T.: Tafakkur, 2015. 4 b.
7. U Xoliqov [Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxmat o'rgatish orqali mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini baholashning innovatsion usullari](#) O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali 1 (2), 28-37
8. UK Khalikov [PEDAGOGICAL VALUE OF DEVELOPING PLAYING CHESS AMONG PRIMARY SCHOOLCHILDREN](#) Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), 17-23
9. Zak A.Z. Razvitie teoreticheskogo mo'shleniya u mladshix shkolkov. -M.: Pedagogika, 1984. 151 s.
10. Bruner J.S. A study of thinking G' J.S. Bruner, J.J. Goodnow, G.A. Austin. -N.Y.: Wiley.-P. 195-330 s.
11. Vershinin M.A. Teoriya proektirovaniya sistemo' formirovaniya logicheskogo mo'shleniya shaxmatistov. Dis. ... doktora pedagogicheskix nauk, Volgogr. gos. akad. fiz. kulturo'. - Volgograd, 2005. 506 s.
12. Kostenyuk A. Trebovaniya sovremennogo mira k sistemam obrazovaniya. Shaxmato' - kak sposob stimulirovaniya intellektualnogo razvitiya detey G'G' Materialo' mejdunarodnoy nauch. prak. konf. Ch. 3. -Chelyabinsk: Izdatelskiy tsentr YuUrGU, 2011.
13. Karaxonova O. Yu. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatishning didaktik tizimini takomillashtirish" dis.2021y.